

3.1. "Xaridor" ning xuquq va majburiyatlari;

"Yetkazib beruvchi" dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan taminlanishni talab qilish;

"Yetkazib beruvchi" dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi tovarlarni yetkazib berilishini talab qilish;

Yetkazib beriladigan tovarlar qiymatini xaqqoniyligi "Xaridor" zimmasida bo'ladi.

3.2. "Yetkazib beruvchi" quydagi xuquqiy majburiyatlarga ega ;

Yetkazib beriladigan tovarlar uchun oldindan xaq to'lanishini va amalda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil xisob qilinishini Xaridordan talab qilish ;

Tovarlarini mazkur shartnomaga asosan "Xaridor" buyurtmasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda yetkazib berish

4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini taminlasa , shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi , qonun hujjatlarda belgilangan xollar bundan mustasno.

4.3. "Xaridor" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud tovarlarning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Yetkazib beruvchi" ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidankamida 3kun oldin xabardor qiladi .

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarlarini yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda "Yetkazib beruvchi" "Xaridor"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi , biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.2. Yetkazib berilgan Tovar uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Xaridor" "Yetkazib beruvchi" ga muddati kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.3. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarni buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va Tovar yetkazib berish muddati kechiktirilishi yoki yetkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishdan ozod etmaydi.

6. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarni ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita Toshkent shaxar tumanlar aro iqtisodiy sudga murojat qilishga haqlidir.

6.3. Fors-major xolati, yani tomonlarga bog'liq bo'lmagan xolatlar (yong'in, suv toshqini shu kabi yengib bo'lmaydigan kuchlar) yuz bergan taqdirda majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma "Xaridor" va "Yetkazib beruvchi" tomonidan tasdiqlanib so'ng g'aznachilik bo'linmalardan ro'yxat o'tkazilgandan keyin kuchka kiradi va **2022 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiliadi.

7.2. Tomonlar o'rtnasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va xisob- kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelushuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shakilda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xaqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir